



FURQAT IJODIGA NAZAR...

Quchmurodova Xusniya Xurram qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti 3-bosqich talabasi

xusniyaquchmurodova@gmail.com

Anantatsiya: Gʻazal ipga terilgan durga oʻxshaydi. Durlar bir-biri bilan oʻzaro bogʻliqdir. Gʻazalda ham ushbu durlar kabi biri ikkinchisini toʻldiradigan unsurlar bor. Gʻazal yozish mahorati insonda tugʻma paydo boʻladi. Buning nomini istedod, mahorat kabi soʻzlar bilan ataydilar. Gʻazal xuddi ulkan qoyaga oʻxshaydi. Gʻazalni yozishda Navoiy, Lutfiy va Bobur kabi uning choʻqqisiga chiqqan shoirlarimizdan tashqari Furqat kabi mahorat bobida oʻz oʻrniga ega shoirlarimiz ham bor. Ushbu maqolada Furqatning gʻazallaridan biri tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: Furqat oʻzbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri. Furqat yozgan gʻazallar ravon va tushinishga oson tarzda yozilgan. Har bir soʻzni oʻz oʻrnida qoʻllagan. Marifatparvar adabiyotshunos boʻlgan.

U shoirlikdan tashqari mohir hattot ham boʻlgan. Uning asl ismi Zokirjon Furqat esa uning taxallusi. „Shoir 1859- yilda Qoʻqonda savdogar oilasida tugʻilgan. Otasi Mulla Xolmuhammad sheʼriyatga oshno, badiiy ijodga moyil kishi edi. Boʻlajak shoir dastlabki taʼlimni mahallasidagi maktabda oladi. Bir yilga yetmay “Haftiyak” va “Chor kitob”ni oʻqib tugatadi.”¹ Oʻz zamonasining eng ziyoli kishilardan boʻlgan. Shu sababli mirzalik va xattotlik ham qilgan. Furqatdan bizga boy adabiy meros qolgan. Shoirning goʻzal gʻazallaridan birining tahlilini koʻramiz:

Ohkim rahm aylamas holimga jononim mening,
Kuydi bu hasrat oʻtida kuymagan jonim mening.
Yigʻlamaymu goʻshai zulmat aro tong otquncha,
Boʻlmasa bir tun kelib shami shamistonim mening.
Boshima savdo tushib, oshufta hol oʻtmay netay,
Jilvagar boʻlsa oʻshal kokil parishonim mening.
Orazi gul, zulfi sunbul koʻylagi bargi suman,
Xilati rano, boʻyi zebo gulistonim mening.

¹ QOZOQBOY YOʻLDOSHEV, VALIJON QODIROV, JALOLBEK YOʻLDOSHBKOV „ADABIYOT“ 9-sinf uchun darslik TOSHKENT „OʻZBEKISTON“ NMIU 2019-YIL 111-bet



Garchi o'ldum ishqida bir zarra parvo aylamas,
Ul tag'oful pasha, istig'nochi luqmonim mening.

Quvlagandin ko'yidin o'ldirsa erdi koshki,
Ostonig'a to'kulsa bir qoshuq qonim mening.

Dardima bechoralig'din chorai qilmasmudi,
Bo'lsa erdi Toshkandda bir qadir donim mening,

Furqat ul maxvash firoqida etar gardun sari
Kechadin to subh chekkan ohu afg'onim mening.

Birinchi baytda shoir oh tortib mashuqa uning holiga rahm aylamasligini aytadi. Mashuqani Janonim deb ataydi. Bu hasratda mening kuymagan jonim kuydi deydi. Bu misralarda jononim va jonim so'zlari qofiyalangan. „Qofiya (ar.)-misralar oxirdagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishi.”² G'azal o'z navbatida har bandda qofiyadan tashkil topishi zarur.

Yig'lamaymu go'shai zulmat aro tong otquncha,
Bo'lmasa bir tun kelib shami shamistonim mening.

Bu zulmat go'shasida yig'lamaymi tong otquncha bu yerda ritorik so'roq gap hosil bo'lgan. Yani barbir yig'layman degan ma'noda kelgan. Yoki bir tunda shamistonim kelmasa nima qilay degan manoda ishlatilgan. Bandda tazod 2ta tazod san'ati qo'llangan. Ushbu bandning birinchi misrasida zulmat va tong so'zlari bo'lsa, keying misrada sham va shamiston so'zlari tazod san'atini hosil qilgan. „Tazod (ar. – zid qo'yish, qarshilantirish) – baytda ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi

² Dilnavoz Yususpova „aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari” „TALIM-MEDIA” Nashriyoti TOSHKENT-2019 177-bet



bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashga asoslangan she‘riy san‘at. Nazm va nasrda keng qo‘llaniladi.”³

Boshima savdo tushib, oshufta hol o‘tmay netay,
Jilvagar bo‘lsa o‘shal kokil parishonim mening.

Netay boshimga savdo tushgandan oshifta hol bo‘lib qoldim. Jilvagar bo‘lsa u kokili parishonim mening. Bu bandda shoir boshiga tushgan ishq savdosidan oshifta hol bo‘lib qolganidan nima qilishini bilmayotganini aytadi.

Orazi gul, zulfi sunbul ko‘ylagi bargi suman,
Xilati rano, bo‘yi zebo gulistonim mening.

Ushbu bandda yorning yuzini gulga, zulfi yani sochlarni sunbulga, ko‘ylagini esa bargi suman deb ataydi. Keyingi misrasida ham yorni maqtashda davom etadi. Xilatini ranoga, yorning bo‘yini zebo kabi deb maqtaydi va gulistonim mening deb qofiyalaydi. Ketma-ket maqtab ketganligi esa ta‘did san‘atini hosil qilgan. „Ta‘didda, asosan, sanoq sonlar ishtirok etib, tartib sonlar nisbatan kam qo‘llanadi, shuningdek, bu vazifani sanoq va tartibni ko‘rsatuvchi son, olmosh va ravishlar ham bajaradi.”⁴

Garchi o‘ldum ishqida bir zarra parvo aylamas,
Ul tag‘oful pesha, istig‘nochi luqmonim mening.

Tag‘noful tuzuk va ma‘qul degani, pesha marhamatli, istig‘nochi so‘zi esa nozli va karashmalari degan ma‘noni bildiradi. Oshiq sevgilisi zarra parvo qilmasligidan zorlanadi. Marhamatli, noz-u karashmalari, luqmonim mening deb uni erkalaydi.

Quvlagandin ko‘yidin o‘ldirsa erdi koshki,

³ Tadjixon Sabitova „NAVOIY IJODIDA BADIY SAN`ATLAR” **ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES** jurnali 2021-yil 1083-bet

⁴ Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „ADABIYOT” 10-sinf uchun maktab darsligi «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent–2017 176-bet



Ostonig‘a to‘kulsa bir qoshuq qonim mening.

Oshiq muhabbat o‘tida shu darajada jonidan to‘yadiki, meni o‘ldursa koshki deydi. Mashuqaning ostonasida bir tomchi qoni to‘kilishini orzu qiladi.

Dardima bechoralig‘din chorai qilmasmudi,

Bo‘lsa erdi Toshkandda bir qadir donim mening.

Toshkentda bir qadr donim bo‘lganda edi, bechora holimga chora qilardi. Bu badda shoir bu g‘azalni qaysidir g‘o‘zal qizga bagishlaganini bilamiz. Chunki Toshkentni keltirganidan mashuqa shu yerlik ekanini bilamiz.

Furqat ul maxvash firoqida etar gardun sari

Kechadin to subh chekkan ohu afg‘onim mening.

Furqat yor firog‘ida dunyolarcha azob chekkani va kechadan subhga qadar ya‘ni tonnggacha ohu faryod chekkanini ma‘lum qiladi. Oshiq mashuqani ba‘zan maqtab ko‘kka ko‘tarsa, ba‘zan u bergan ozorlaridan noliydi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Furqat yozgan g‘azallarda mashuqa ikki shaklda gavdalanadi. Biri Allohga bo‘lsa, biri chiroyda tengsiz bir qizga qaratilgan. Mashuqani ulug‘lab uni maqtaganda g‘azal Allohga nisbatan aytilganini tushinsak, Toshkent kabi joy nomlari aniq kelganda bu aniq bir shaxsga qaratilganini bilsak bo‘ladi. Furqatning ijodidagi ushbu g‘azal ham mohirona yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. QOZOQBOY YO‘LDOSHEV, VALIJON QODIROV, JALOLBEK YO‘LDOSHBEKOV „ADABIYOT“ 9-sinf uchun darslik TOSHKENT „O‘ZBEKISTON“ NMIU 2019-YIL 111-bet
2. Dilnavoz Yususpova „aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari“ „TALIM-MEDIA“ Nashriyoti TOSHKENT-2019 177-bet
3. Tadjixon Sabitova „NAVOIY IJODIDA BADIY SAN‘ATLAR“ **ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES** jurnali 2021-yil 1083-bet
4. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „ADABIYOT“ 10-sinf uchun maktab darsligi «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent–2017 176-bet